

TIJORAT BANKLARIDA XALQARO PUL O'TKAZMALARI HISOBINI YURITISH JARAYONLARI ("O'ZSANOATQURILISHBANK" ATB MISOLIDA)

Safarova Muxabbat Radjabovna

Agrosanoatni rivojlantirish agentligi mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari hisobini yuritish jarayonlari, ularning tashkil etilish mexanizmi hamda bu jarayonda zamonaviy bank texnologiyalarining qo'llanilishi "O'zsanoatqurilishbank" ATB misolida tahlil qilinadi. Xalqaro pul o'tkazmalari bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiyotning muhim bo'g'iniga aylangan bo'lib, ular nafaqat jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga soladi, balki mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda "O'zsanoatqurilishbank" tizimida xalqaro o'tkazmalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan SWIFT, Western Union, MoneyGram, Contact kabi to'lov tizimlari, ularning ishlash prinsiplari va xavfsizlik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, tezisda xalqaro pul o'tkazmalari hisobini yuritishda buxgalteriya hisobining o'ziga xos jihatlari, hujjatlashtirish tartibi, valyuta nazorati talablari va audit jarayonlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, xalqaro pul o'tkazmalari, "O'zsanoatqurilishbank" ATB, buxgalteriya hisobi, xalqaro to'lov tizimlari, SWIFT, Western Union, MoneyGram, Contact, valyuta nazorati, moliyaviy operatsiyalar, bank tizimi.

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida xalqaro moliyaviy munosabatlarning kengayishi tijorat banklari faoliyatida xalqaro pul o'tkazmalari tizimining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bugungi kunda banklar nafaqat ichki bozor doirasida, balki xalqaro miqyosda ham moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi asosiy institut sifatida maydonga chiqmoqda. Shu bois, xalqaro pul

o'tkazmalari hisobini yuritish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, ularni aniq buxgalteriya hisobida aks ettirish va xalqaro standartlarga muvofiq nazorat qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda bank tizimini modernizatsiya qilish, to'lov infratuzilmasini takomillashtirish hamda xalqaro moliyaviy operatsiyalarda ishtirokni kengaytirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zsanoatqurilishbank" ATB misolida olib borilayotgan faoliyat bu jarayonlarning samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Mazkur bank xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirishda ilg'or to'lov tizimlari hisoblangan SWIFT, Western Union, MoneyGram, Contact va boshqa platformalardan foydalanib, mijozlarga tezkor, xavfsiz va ishonchli xizmat ko'rsatishni ta'minlamoqda. Shu bilan birga, bu jarayonlarda buxgalteriya hisobi, audit va moliyaviy monitoringning ahamiyati ortib bormoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi tijorat banklarida turli xil xalqaro pul o'tkazmalaridan foydalaniladi. Har qaysi tijorat bank o'ziga mos keladigan xalqaro pul o'tkazmalarini tanlab olgan. "O'zsanoatqurilishbank" ATBdagi xalqaro pul o'tkazmalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ayni vaqtda bu bankda 5 ta turdagi pul o'tkazmalaridan foydalaniladi (1-jadval):

1-jadval

"O'zsanoatqurilishbank" ATBdagi xalqaro pul o'tkazmalari¹

№	Xalqaro pul o'tkazmalari turlari	Komissiya to'lovi	Umumiy miqdor (komissiya + yuboriladigan pul)	Pul o'tkazish mumkin bo'lgan davlatlar
1	MoneyGram	0%	100\$	Tanlangan davlatga xizmat ko'rsatilmaydi
2	Western Union	15%	115\$	Uzoq xorij mamlakatlari
3	Zolotaya Korona	0%	100%	Rossiya

¹ "O'zsanoatqurilishbank" ATB rasmiy <https://sqb.uz/> saytining <https://sqb.uz/uz/individuals/money-transfer/havolasidagi-ma'lumotlar> asosida muallif tomonidan tayyorlandi
<https://scientific-jl.com/>

	(Золотая Корона)			
4	Ria Money Transfer	0%	100\$	Tanlangan davlatga xizmat ko'rsatilmaydi
5	AsiaExpress	1,4\$	101,4\$	Rossiya

Yuqoridagi jadvaldan biz ma'lum bo'ladiki, "O'zsanoatqurilishbank" ATBdagi xalqaro pul o'tkazmalari o'zining vazifalari va qulayliklariga ko'ra farqlanadi. Bunda, asosan, xalqaro pul o'tkazmalari komissiya to'lovi va pul o'tkazish mumkin bo'lgan davlatlarga nisbatan farq qiladi.

"O'zsanoatqurilishbank" ATBda avval xalqaro pul o'tkazmalari tizimi orqali xorijga pul yuborish faqatgina naqd pul ko'rinishidagi xorijiy valyuta mablag'lari taqdim qilingan taqdirdagina amalga oshirilardi. Bu holat mijozlar uchun muayyan qiyinchiliklarni tug'dirgan. Mijozlarning istak va takliflari hamda bugungi kun talablarini inobatga olgan holda O'zsanoatqurilishbank tizimida xalqaro pul o'tkazmalari tizimidan foydalanish qoidalari yanada soddalashtirildi va qo'shimcha qulayliklar yaratildi.

Ayni vaqtda xalqaro pul o'tkazmalari tizimida maksimal darajada qulay sharoitlar yaratildi, jumladan, naqd va naqdsiz pul mablag'larini omonat hisob raqami yoki plastik kartochkaga tushirish orqali hech qanday to'siqlarsiz olish va jo'natish imkoniyati joriy etildi. Bank "Western Union", "Blizko", "Aziya Ekspres" va "Zolotaya Korona" tizimlarining ishtirokchisi hisoblanadi va shu tufayli mijozlariga o'z yaqinlari va do'stlariga pulni tez va arzon yuborish imkoniyatini taqdim etadi.

Hozirgi kunda "O'zsanoatqurilishbank" ATBda xalqaro to'lov tizimidagi kartalar ham rivojlangan va bu kartalar mijozlarga turli xil xizmatlar ko'rsatish uchun amalda qo'llanmoqda. Masalan, "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan Xalqaro to'lov tizimidagi boshqa bankning VISA, Mastercard, UnionPay va JCB kartalari egalariga xizmat ko'rsatilmoqda (2-jadval):

2-jadval

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan Xalqaro to‘lov tizimidagi
kartalari egalariga ko‘rsatiladigan xizmatlar²**

№	Amaliyot turlari
1	Kommunal xizmatlar
2	Bankomat orqali naqd pul yechib olish
3	Chet el valyutasida pul o‘tkazish
4	Milliy valyutada pul o‘tkazish
5	Internetda xaridlarni amalga oshirish

Yuqoridagi jadvalda berilgan amaliyot turlaridan tashqari xalqaro to‘lov tizimidagi kartalar orqali yana bir qancha xizmatlar ko‘rsatiladi. Kommunal, pullik va boshqa xizmatlar uchun “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning xizmat ko‘rsatish shahobchalarida, shuningdek, savdo va xizmatlar uchun savdo va xizmat ko‘rsatish korxonalarida ATB “O‘zsanoatqurilishbank” orqali to‘lovlarni amalga oshiriladi.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan xalqaro to‘lov tizimidan foydalanish uchun quyidagi xalqaro kartalarni ochishga imkoniyat yaratilib berilgan (3-jadval):

3-jadval

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan taqdim etiladigan xalqaro
kartalar³**

№	Karta turi	Chiqarish (ming so‘m)	Sug‘urta depoziti	Naqd pul yechib olish	Tovarlar va xizmatlar uchun to‘lov
1	Visa Classic	30 000	\$5	1,5%	0,6%
2	Visa Platinum	100 000	\$50	1,5%	-
3	Visa Infinite	200 000	\$200	1,5%	-
4	Mastercard	30 000	\$5	1,5%	0,6%

² “O‘zsanoatqurilishbank” ATB rasmiy <https://sqb.uz/> saytidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

³ “O‘zsanoatqurilishbank” ATB rasmiy <https://sqb.uz/> saytidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi
<https://scientific-jl.com/>

	World				
5	UnionPay Gold	30 000	\$5	1,5%	0,6%
6	JCB kartalari	30 000	\$10	1,5%	0,6%

Yuqoridagi jadvaldan bizga ma'lum bo'ladiki, "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan xalqaro to'lov tizimidan foydalanish uchun taqdim etiladigan xalqaro kartalarni ochishda har qaysi kartaga nisbatan turli xil to'lovlar va depozitlar amalga oshiriladi. Masalan. Hozir kunda tezlik bilan rivojlanayotgan UnionPay to'lov vositasidagi kartaarni oladigan bo'lsak, bu kartani chiqarish uchun bank xizmati 30 000 so'm bo'lib, unda sug'urta depoziti 10\$ni, naqd pul yechib olish 1,5%ni va tovarlar va xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirganda esa komissiya to'lovi 0,6%ni tashkil qiladi.

Shuningdek, "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan O'zbekistonda ilk bor JCB kartalari qabul qilingan va bu kartalar hozirgi kunda ham foydalanib kelinmoqda. CB bu jahondagi yirik to'lov brendi, yetakchi emitent va Yaponiyada kredit kartalarning xaridoridir. Kompaniya 1961 yilda tashkil topgan. 1981 yildan JCB boshqa mamlakatlar bozorlariga chiqib, o'z faoliyati doirasini kengaytirmoqda. Bankning qabul qilish tarmog'i dunyodagi qariyb 35 million savdo vakillarini qamrab oladi. Hozirgi vaqtda JCB kartalari 140 milliondan ortiq karta egalari bo'lgan 20 dan ziyod mamlakatlar va hududlarga chiqariladi⁴.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari hisobini yuritish bugungi kunda moliyaviy tizimning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, tashqi savdo hajmining ortib borishi va xalqaro moliyaviy aloqalarning kengayishi bu jarayonning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, xalqaro to'lov operatsiyalarining samaradorligini oshirish uchun banklarda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, buxgalteriya hisobini

⁴ <https://sqb.uz> – O'zsanoatqurilishbank" ATB rasmiy sayti
<https://scientific-jl.com/>

avtomatlashtirish, kompayens tizimini kuchaytirish hamda xalqaro standartlarga mos axborot xavfsizligi tizimini shakllantirish zarur.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB faoliyatining tahlili shuni ko‘rsatdiki, bank xalqaro pul o‘tkazmalarini amalga oshirishda SWIFT, Western Union, MoneyGram kabi tizimlardan faol foydalanmoqda, biroq ayrim jarayonlarda hisob-kitobning tezligi va aniqligini yanada yaxshilash imkoniyatlari mavjud. Shu bois, xalqaro to‘lov operatsiyalarini boshqarishda ilg‘or texnologiyalar, xususan, blokcheyn asosidagi yechimlarni joriy etish, mijozlarga mo‘ljallangan raqamli platformalarni rivojlantirish va elektron hujjat aylanish tizimini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, xalqaro pul o‘tkazmalarida yuzaga keladigan xatarlarni kamaytirish uchun risklarni baholash tizimini kuchaytirish, xodimlar malakasini oshirish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu orqali tijorat banklarida hisob yuritishning shaffofligi, to‘lovlarning tezkorligi va xavfsizligi ta‘minlanadi. Umuman olganda, xalqaro pul o‘tkazmalari hisobini takomillashtirish O‘zbekiston moliyaviy tizimining raqobatbardoshligini oshiradi, mijozlar ishonchini mustahkamlaydi va milliy bank tizimining global moliya maydonida barqaror o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5177-sonli Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3272-sonli Qarori
3. J.X.Ataniyazov, N.X.Jumayev, E.D.Alimardonov. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari (1-qism). Darslik. - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. - 168 b.

4. Tojiev R.R. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari. Darslik. - Toshkent. "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2019 yil, 296 b.
5. Bobaqulov T.I., Abdullayev U.A. "Xalqaro valuta-kredit munosabatlari" Darslik. - Moliya. - Toshkent, 2019yil, 226 b.
6. J.X.Ataniyazov, F.A.Xamidova, M.B.Pulatova. Xalqaro moliya institutlari. O'quv qo'llanma.2020- yil -156b.
7. Махмудов, С. (2022). Анализ источников формирования финансовых ресурсов логистических предприятий. Экономика и образование, 24(1), 344–351.
8. Гордиевич Т.И., Рузанов П.В. Денежно-кредитная политика: основные режимы и трансмиссионный механизм // Омский научный вестник. Сер. Общество. История. Современность. 2019. Т. 4, № 2. С. 122–130.
9. Кудрин А., Горюнов Е., Трунин П. Стимулирующая денежно-кредитная политика: мифы и реальность // Вопросы экономики. 2017. №5. С. 5–28.
10. <https://cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
11. <https://sqb.uz> – O'zsanoatqurilishbank" ATB rasmiy sayti